

ZARDUSHTIYLIK BILAN BOG'LIQ URF ODAT VA MAROSIMLARNING TRANSFORMATSION JARAYONLARI

Jo'rayeva S¹¹ Jo'rayeva S

MAQOLA MA'LUMOTI

MAQOLA TARIXI:

Received: 26.11.2024

Revised: 27.11.2024

Accepted: 28.11.2024

ANNOTATSIYA:
KALIT SO'ZLAR:

Zardushtiylik,
transformatsiya,
“Avesto”, madaniy
meros, O'rta Osiyo, diniy
an'analar, zamonaviy
tadqiqot.

Ushbu maqola Zardushtiylikning urf-odat va marosimlari transformatsiyasi jarayonlarini o'rganishga bag'ishlangan. Maqola tarixiy, madaniy va zamonaviy kontekstda Zardushtiylikning rivojlanishi, uning asosiy qoidalari va amaliyotlari haqida fikr yuritadi. Dastlab, Zardushtiylikning paydo bo'lishi va uning “Avesto” kitobidagi asosiy tamoyillari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, diniy marosimlar, masalan, olovga sig'inish, tug'ilish va o'lim marosimlari, hamda ular jamiyat hayotida qanday ahamiyatga ega bo'lganligi o'rganiladi. Transformatsiya jarayonlari O'rta Osiyodagi islom dini tarqalishi, madaniyatlar o'zaro aloqalari va globalizatsiya bilan bog'liq tarzda tahlil qilinadi. Zamonaviy davrda Zardushtiylikning ko'plab qadriyatlari milliy bayramlar, xususan, Navro'z orqali saqlanib qolganligi ko'rsatilgan. Ushbu maqolada Zardushtiylikning madaniy meros sifatida bugungi ahamiyati, uni xalqaro miqyosda o'rganish zarurati va uning insoniyat tarixidagi tutgan o'rni haqida muhim xulosalar keltirilgan.

KIRISH. Zardushtiylik (yoki Zoroastrianizm) – dunyodagi eng qadimgi dinlardan biri bo'lib, miloddan avvalgi VII-VI asrlarda O'rta Osiyo va Eron hududlarida paydo bo'lgan. Uning asoschisi, Zardusht (Zarathustra)ning ta'lilotlari “Avesto” kitobida ifodalangan. Dinning asosiy falsafiy tamoyillari yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurash, ilohiy tartib va axloqiy mas'uliyatga asoslangan. Ushbu diniy tizim bugungi kunda ham o'zining ta'lilotlari va marosimlari orqali davom etmoqda. Zardushtiylik O'rta Osiyo va yaqin Sharqda katta ta'sir ko'rsatgan. Xususan, Zardushtiylikning ta'siri, uning diniy marosimlari

va urf-odatlari ko‘plab xalqlarning madaniyatiga singib ketgan. Zardushtiylikda olovga sig‘inish, hayotning qadri, tabiiy resurslarga hurmat kabi qadriyatlar ko‘plab urf-odatlar va jamiyatlar hayotida namoyon bo‘lgan. Madaniy va diniy hayotning bu o‘zaro bog‘liqligi Zardushtiylikni O‘rta Osiyo xalqlarining tarixida muhim o‘rin tutgan diniy tizimga aylantirgan.

Zardushtiylikning tarixiy jarayonlardagi transformatsiyasi, o‘zining diniy marosimlari va ta’limotlarini yangi sharoitlarga moslashtirishi, zamonaviy jamiyatlar bilan o‘zaro aloqasi, uning o‘zgarishlaridan xabardor bo‘lishni talab qiladi. Zardushtiylik, islom va boshqa dinlarning ta’siri ostida o‘zgarishlarga uchragan bo‘lsa-da, uning asosiy qadriyatları va falsafiy tamoyillari hali ham dunyo miqyosida e’tirof etiladi. Bu jarayonlarning O‘rta Osiyo xalqlarining diniy va madaniy hayotida qanday aks etganini o‘rganish bugungi tadqiqotlar uchun muhimdir.

Avesto, Zardushtiylik dinining asosiy matni bo‘lib, uning ahamiyati nafaqat diniy, balki madaniy, axloqiy va falsafiy jihatdan ham katta. Avesto matni Zardushtiylikning asosiy ta’limotlarini o‘z ichiga oladi, jumladan, yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi kurash, ilohiy va insoniy mas’uliyatlar, hamda jahonni tartibga soluvchi ahloki qadriyatlar. Mary Boycening asarlarida, Avesto, insoniyatning axloqiy mas’uliyatini o‘z zimmasiga olgan ko‘plab qadriyatlar bilan shakllanganligi ta’kidlanadi. Bu matnni o‘rganishda, ularni tarixiy va madaniy kontekstga joylashtirish muhimdir. Avesto matni orqali Zardushtiylikning asosiy qadriyatları — Ahura Mazdaga bo‘ysunish, yaxshilikka intilish va yomonlikka qarshi turish aniq ko‘rsatiladi. Bu qadriyatlar nafaqat diniy ibodatlarda, balki kunlik hayotda ham o‘z aksini topadi. Avesto, o‘z vaqtida qadimgi Eron va o‘scha davrning boshqa xalqlari uchun axloqiy va diniy kompas vazifasini o‘tagan. Kitobdagi seremoniyalar va ibodatlar, xuddi shu axloqiy qoidalar asosida rivojlangan. Bu orqali, Avesto nafaqat diniy qo‘llanma, balki o‘z zamonining madaniy va ijtimoiy hayotini aks ettirgan adabiyot sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi. Anatoliy Sagdullayevning asarlari O‘rta Osiyo tarixini, madaniyatini va diniy ta’limotlarni chuqur o‘rganishga qaratilgan. Uning asarida Zardushtiylikning O‘rta Osiyo madaniyatidagi o‘rni va ta’siri keng yoritilgan. Sagdullayev O‘rta Osiyo xalqlarining diniy tafakkurini va ular orasida Zardushtiylikning rivojlanishini tahlil qiladi. O‘rta Osiyo, Zardushtiylikning tarqalgan mintaqalaridan biri bo‘lib, ushbu diniy ta’limotning qadimgi madaniyatlar bilan aloqasi haqida batafsil ma’lumotlar berilgan. Sagdullayevning fikriga ko‘ra, Zardushtiylikning diniy g‘oyalari, ijtimoiy va axloqiy tizimlar, o‘zgarishlar va ijtimoiy tizimlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Sagdullayev, Zardushtiylikning ijtimoiy tuzumi va uning ijtimoiy hayotga ta’sirini keng tahlil qiladi. U Zardushtiylikni nafaqat

diniy, balki ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan bir tizim sifatida ko‘rib chiqadi. Zardushtiylikning O‘rta Osiyo madaniyati va urf-odatlariga qanday ta’sir qilgani, uning hayotdagi amaliy ko‘rinishlari tahlil qilingan. Bunday o‘zgarishlar diniy rasm-rusmlar va ijtimoiy tartiblarni shakllantirishda o‘z aksini topadi. Sagdullayevning kitobida Zardushtiylik va boshqa qadimgi dinlar, masalan, Buddizm va Manihelizm o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirlar ham ko‘rib chiqiladi. O‘rta Osiyo tarixining diniy jihatlari, regiondagi xalqlar orasida o‘zaro aloqalar va o‘zgarishlar Sagdullayevning asarida chuqr yoritilgan. O‘rta Osiyo xalqlarining diniy tafakkuri, zamon o‘tishi bilan o‘zgarib, yangi diniy qarashlar va amaliyotlar shakllangan.

Avesto va Anatoliy Sagdullayevning asarlari Zardushtiylik va uning O‘rta Osiyo madaniyatiga ta’siri haqida keng ko‘lamli ma’lumotlar beradi. Avesto diniy va axloqiy qadriyatlarni shakllantirgan muhim manba bo‘lib, uning tahlili bizga qadimgi Eronning ruhiy va madaniy hayotini tushunishga yordam beradi. Sagdullayevning asarida Zardushtiylikning madaniy aloqalari va O‘rta Osiyo ijtimoiy tizimlariga ta’siri keng ko‘rsatilgan. Har ikki asar va bir qancha ilmiy maqolalar ham Zardushtiylikni o‘rganishda metodologiyaning ahamiyatini ta’kidlaydi. Avesto, asosiy diniy matn sifatida, tarixi, madaniyati va urf-odatlarini yanada chuqurroq tushunishga imkon beradi. Sagdullayevning asari esa, Zardushtiylikning regiondagi tarixiy va madaniy jarayonlarga qanday ta’sir qilganini tahlil qiladi, bu ikki manba birgalikda diniy va madaniy yondashuvlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda Zardushtiylik bilan bog‘liq urf-odat va marosimlarning transformatsion jarayonlari o‘zida chuqr tarixiy, madaniy va ijtimoiy o‘zgarishlarni aks ettiradi. Bu jarayon asrlar davomida turli madaniyatlar, dinlar va siyosiy tuzumlarning ta’siri ostida rivojlanib, o‘ziga xoslikni saqlab qolish bilan birga yangi ko‘rinishlarni ham olgan. Ushbu transformatsiya, bir tomonidan, diniy e’tiqod va amaliyotlarning moslashuvchanligini, boshqa tomonidan esa, ularning barqarorligini ko‘rsatadi. Zardushtiylik marosimlarining dastlabki shakllari asosan tabiat bilan uyg‘unlikni, otash, suv va tuproq kabi muqaddas unsurlarga hurmatni ifoda etgan. Zardushtiylikning asosiy diniy bayramlari — Navro‘z, Mehrgon va Sada — bu an’anaviy qadriyatlarni o‘zida mujassam etgan. Ammo tarixiy jarayonlar davomida, ayniqsa, fors imperiyasining qulashidan keyin, bu bayramlar boshqa madaniyatlar bilan aralashib, o‘zining asl diniy mazmunini qisman yo‘qotdi yoki yangi talqinlar bilan boyidi. Masalan, Navro‘z ko‘plab mintaqalarda umumxalq bayramiga aylangan va diniy mazmundan ko‘ra madaniy ahamiyat kasb etmoqda. Islom dini hukmronligi davrida zardushtiylik marosimlari va an’analari kuchli bosimlarga uchradi.

Ko‘plab zardushtiyalar islomni qabul qilgan bo‘lsa-da, ayrim marosimlar va urf-odatlar yashirincha davom ettirildi yoki yangicha shaklda tiklandi. Shu bilan birga, ayrim zardushtiylik qadriyatları islom madaniyati bilan uyg‘unlashib, yangi sintezga aylandi. Masalan, poklik va adolatga intilish kabi qadriyatlar ikkala dinda ham davom etib, ular o‘rtasidagi madaniy aloqa va o‘zaro ta’sirni kuchaytirdi. Zamonaviy davrda zardushtiylik urf-odatlari va marosimlari jahon madaniy merosi sifatida e’tirof etilmoqda. Zardushtiy jamoalar, ayniqsa, Eron, Hindiston va boshqa mamlakatlarda, o‘z urf-odatlarini saqlash va targ‘ib qilishga intilmoqda. Shu bilan birga, globalizatsiya jarayonida bu marosimlar yangi mazmun va ko‘rinish kasb etmoqda. Yosh avlodlar zamonaviy texnologiyalar va madaniy aloqa vositalaridan foydalanib, qadimiy an’analarni targ‘ib qilishda faol ishtiroy etmoqda. Masalan, Navro‘z kabi bayramlar global miqyosda tan olinib, UNESCO tomonidan madaniy meros ro‘yxatiga kiritildi, bu esa ularning universallashuviga sabab bo‘ldi. Transformatsiya jarayonlari zardushtiylik urf-odatlari va marosimlarini o‘zgartirgan bo‘lsa-da, ular o‘zining mohiyatini saqlab qolmoqda. Bu jarayon diniy va madaniy merosning hayotiyligini, uning moslashuvchanlik xususiyatini va har bir davr talablari bilan uyg‘unlashishga qodirligini isbotlaydi. Shu sababli, zardushtiylik nafaqat tarixiy va madaniy qiziqish obyektiga, balki jahon madaniyatida o‘ziga xos o‘rin tutadigan merosga aylangan. Bu transformatsiya jarayonlarini o‘rganish nafaqat zardushtiylikni, balki butun insoniyat tarixini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.A. Mahkam tarjimasi “Avesto “ Toshkent - 2001
- 2 A.S. Sagdullayev “ O‘zbekiston tarixi” Toshkent – 2021 116-138 betlar
- 3.<https://sg.docworkspace.com/d/sIFiv8daZAoGmjboG?sa=601.1123> maqola 1 – 5 betlar
- 4 S. D. Karimova “Zardushtiylikda nikoh va oila masalasi “ilmiy maqolasi Ares. Sayti
5. Vikipediya